



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
B U Y R U Q

2023 yil “29” *dekabr*

718 -son

Namangan sh

**Markazlashgan davlat xaridlarini
amalga oshirish jarayonini tartibga
solish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 149-sonli buyrug‘i talablarini ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o‘tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida:

davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkiblari 1-ilovaga,

2-ilovaga, 3-ilovaga, 4-ilovaga;

davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasining asosiy vazifasi Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, uning quyi tizimlari hamda tasarrufiy tashkilotlarda amalga oshiriladigan markazlashgan xaridlarni ko‘rib chiqish, xolis baholash hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali g‘olibni tanlashdan iborat.

3. Uch kun muddatda Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari o'zining shaxsiy "Elektron imzo" kaliti bilan xarid.uzex.uz dasturi orqali ro'yxatdan o'tsin.

4. Komplaens nazorat bo'limi (A.Qosimov) xarid ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni baholash jarayonida xarid tartib taomillariga asosan manfaatlar to'qnashuvini va ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, hujjatlar taqdim etilgandan so'ng uch ish kunida xulosani Xarid komissiyasi ishchi guruhiga taqdim etsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig'i



Z.Ikramov

